

ALEKSANDR FAYNBERGNING IJODIY MEROSI

Islomova Firangiz O'tkirovna
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
Ingliz tili 1-fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek yurakli rus shoiri bo'lmish Faynbergning dunyo miqyosida tutgan o'rni va uning faoliyati davomida qilgan beqiyos ijodi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada serqirra ijodkorning she'rlari tahlili va Faynbergning adabiyotimizga qo'shgan hissasi qay darajada ekanligi haqida fikrlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiyoti, ijodiy me'ros, she'riyat, tazod, shoir, tarjimon, ssenariynavis O'zbekfilm, Tojikfilm

Inson hayoti ikki sana o'rtasida kechadi: biri tug'ilish sanasi bo'lsa, ikkinchisi o'lim sanasidir. Shu ikki sana o'rtasida yaxshi yoki yomon nom qoldirib ketish insonning o'ziga bog'liq. O'zining hayoti davomida unumli ijod qilib, xazinaga teng ijodiy meros qoldirib, minglab kitobxonlar, nafaqat kitobxonlar, balkim dunyo tomoshabinlarining ko'nglidan joy olgan ijodkor Aleksandr Arkadeyovich Faynbergdir. U o'zining asarlari, tarjimalari va ssenariylari bilan ikki xalqning suyakli farzandiga aylangan va asarlari dunyo yuzini ko'rgan. Jumladan, AQSh, Kanada, Isroilning davriy nashrlarida uning asarlari chop etilgan.

Shoir, tarjimon, ssenariynavis Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabr kunida Toshkent shahrida tavallud topgan va hayotining ilk davrlari sobiq Jukovskiy ko'chasida kechgan. Hayotni turfa ranglarda ko'radigan ijodkorning qalbi tabiatga payvand edi. U atrofdagilar ko'ra olmaydigan tabiat jilosini ko'ra oladigan va uni madh etib she'rga solish qobiliyatiga ega otash qalb shoir edi.

Faynberg o'zining ijodiy yo'lida faqat bir mavzuga murojaat qilmadi, bir she'rida Sharq madaniyati nafasi ufurib turgan misralar bilan odamzodni hayotning o'tkinchiligidan ogoh etgan bo'lsa, yana bir she'rida ijtimoiy muammolarni badiiy bo'yoqlar bilan bezab o'quvchiga yetkazib beradi.

Faynbergning she'rlari rang-barangligi va inson qalbiga yaqin mavzularda yozilganligi uchun ming-ming yillar o'tsa-da, o'zining ma'no-mohiyatini, qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Masalan, bolalik mavzusida yozgan she'ri ushbu misralar bilan boshlanadi:

Bolalik hech chegara bilmas, Samokat yeladi oyoq ostida.

Nay navosi yangrashdan tinmas, Kumush sharlar uchish qasdid.

Yuqoridagi misralarni o'qigan kitobxon Faynbergning jonli tasvir yarata olish qobiliyatiga yana bir marotaba tan beradi. Chunki bolalik davrining ajralmas zavqi

bo'lgan “samokat”, “sharlar” so'zlarining qo'llanilishining o'zigina bolalik chog'lariga yetaklaydi va qalbdagi iliq tuyg'ularning jumbushga kelishiga sabab bo'ladi. Shoir birinchi misradayoq azaliy haqiqatni, ya'ni inson bolaligi vaqtlar o'tsa-da, uning qalbida saqlanib qolishini aytadi:

Tark etmaydi seni umrbod,
Sho'ng'isang-da zamin-u ko'kka.
Uni qo'msab eslaysan bot-bot,
Kirsam hamki yoshing ellikka.

Yosh necha yil umr ko'rganlik bilan emas, balkim qalb necha yoshda ekanligi bilan o'lchanadi. Inson ellikka, oltimishga kirishi yoxud yetmishdan oshishi ham mumkin, lekin uning ko'nglida bolalik yashaydi va hayotda vaziyat taqazo etib qalb qo'rida saqlangan tuyg'ular yuzaga chiqib, bolalik eslanganida uni qo'msab goh shirin ko'z yosh, goh yuzda tabassum paydo bo'ladi.

She'rning so'nggi bandida shoir tashxis san'atidan foydalanib bolalikni jonlantirgan: Hatto so'nggi manzilga tomon,

Mungli xonish qilib boradi.
Kaleydoskop va temir nayining,
Ohanglari bag'ring yoradi.

Yana bir boshqa she'rda Faynbergning hayotga nisbatan falsafiy qarashlari namoyon bo'ladi: Bilmam!

Jannati kim-u, do'zaxi kimlar,
Qo'shnim qassob, hayoti beqam.
Axir uning qo'lida go'sht ham suyak ham.
Qo'l tutgan joylarni pichoq nimtalar.

Bu misralarning lingvistik tahliliga to'xtalsak, “Jannat” va “Do'zax”, “Go'sht” va “Suyak” so'zlari o'zaro zidlashib tazod san'atini yuzga keltirgan. Bu she'rda lirik qahramon savollar bilan murojaat qiladi va she'rning oxirgi misrasida umumbashariyatga shunday nasihatni uqtiradi: “Dunyoda o'limdan boshqasi yolg'on”

Faqatgina she'riyat bilan cheklanib qolmagan Aleksandr Faynberg tarjimonlik sohasida ham unumli qalam tebratdi. U o'zbek xalqining yuragidan joy olgan atoqli shoirlardan bo'lmish Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Omon Matjon va boshqa ko'plab o'zbek shoirlarining she'rlarini katta mahorat bilan rus tiliga tarjima qilgan. Bundan tashqari, Faynbergning sharofati bilan rus kitobxonlari Alisher Navoiyning g'azallari bilan tanishdi.

Aleksandr Faynberg zamon bilan hamnafas holda asarlar yaratgan ijodkor va u zamon talabiga mos ssenariylar yozgan. Uning ssenariysi asosida “O'zbekfilm” kinostudiyasida „Mening akam“, „Jazirama oftob tagida“, „Qandahorda toblanganlar“, „Tojikfilm“ kinostudiyasida esa „Jinoyatchi va oqlovchilar“ kabi

filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariylari asosida to‘rtta to‘liq metrajli badiiy film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan.

Butun umr jamiyat, tabiat, insoniyat manfaati uchun qalam tebratgan Faynberg 2009-yil 14-oktabr kunida o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan ona shahri - Toshkentda vafot etadi va Toshkentdagi Botkin qabristonining bo‘limiga dafn etiladi. Ammo uning el-yurt oldidagi xizmatlari yuksak baholanadi, millat mulkiga aylanib ulgurgan she‘rlari esa avloddan avlodga o‘tib, qaynoq mehr tuyg‘usi bilan e‘tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
2. “Ishq degani bir qarashda tuyular oson”.